



ISSN 2181-1571



FERGANA STATE
UNIVERSITY

FarDU.
ILMIY XABARLAR

**IJTIMOY GUMANITAR
FANLAR**

**Scientific journal
of the
Fergana State
University**



3/2024

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Muassis: Farg'ona davlat universiteti.

"FarDU. Ilmiy xabarlar – Научный вестник. ФерГУ – Scientific journal of the Fergana State University" jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal pedagogika, filologiya, tarix, falsafa, siyosat, kimyo, biologiya hamda geografiya fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 2-sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahririy-nashriyot bo'limida tayyorlandi.

Tahrir hay'ati

Bosh muharrir
Mas'ul muharrir

SHERMUHAMMADOV B.SH.
ZOKIROV I.I.

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)	JEHAN SHAHZADAH NAYYAR (Yaponiya)	G'ULOMOV S.S. (O'zbekiston)
BEZGULOVA O.S. (Rossiya)	LEEDONG WOOK (Janubiy Koreya)	BERDISHEV A.S. (Qozog'iston)
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)	A'ZAMOV A. (O'zbekiston)	KARIMOV N.F. (O'zbekiston)
VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)	KLAUS XAYNSGEN (Germaniya)	CHESTMIR SHTUKA (Slovakiya)
ZAYNOBIDDINOV S. (O'zbekiston)	RAKETIN O. (Rossiya)	TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)
AXTARIYEVA R. (Rossiya)		TURAYEV A. (O'zbekiston)

Tahririyat kengashi

IJTIMOIY GUMANITAR FANLARI BO'YICHA			
EGAMBERDIYEVA T. (O'zbekiston)	FarDU, p.f.d.prof.	SIDDIQOV I. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.d.dots.
XONKELDIYEV Sh. (O'zbekiston)	FarDU, p.f.d.prof.	YULDASHEV S. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.b.f.d.(PhD)
TOJIBOYEVA H. (O'zbekiston)	Ped.ilm.tad.instituti. p.f.d.(Dsc)	G'ANIYEV B. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.d.dots.
O'RINOVA N. (O'zbekiston)	FarDU, p.f.n.dots.	QOSIMOV A. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.d.prof.
ABBASOVA N. (O'zbekiston)	FarDU, p.f.b.f.d(PhD)	MAMAJONOV A. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.d.prof.
DAVLYATOVA G. (O'zbekiston)	FarDU, p.f.n.	ISKANDAROVA Sh. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.d.prof.
G'OFUROV A. (O'zbekiston)	FarDU, i.f.d.prof.	SHUKUROV R. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.n.dots.
XONKELDIYEVA G. (O'zbekiston)	FarDU, i.f.d.prof.	ZOKIROV M. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.n.prof.
HOLMATOV B. (O'zbekiston)	FarDU, i.f.n.	MO'MINOV S. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.d.prof.
XAKIMOV N. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.d. dots.	YULDASHEVA D. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.doktori.
ISOMIDDINOV M. (O'zbekiston)	FarDU, t.f.d.	MAMAJONOV M. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.b.f.d.dots.
USMONOV B. (O'zbekiston)	FarDU, t.f.d (DSc)	KAXAROVA M (O'zbekiston)	FarDU, f.f.n.dots.
MAXMUDOV O. (O'zbekiston)	FarDU, t.f.d.dots	ISOMIDDINOV F. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.n.
QAHHOROVA M. (O'zbekiston)	Xalqaro islom akademiyasi, f.f.d.prof.	SABIRDINOV A. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.d.prof.
MAMATOV M. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.d (PhD).prof.	RAHIMOV Z. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.d.,dots
QAMBAROV A. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.d.prof.	MIRZAYEVA D. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.b.f.d(PhD)
AHRORQULOVA A. (O'zbekiston)	FarDU, yu.f.b.f.d(PhD)		

Muharrirlar: Sheraliyeva J.
Mirkarimova Sh.
Musahhihlar: Raximov J.
Mahmudov F.

Tahririyat manzili:
150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.
Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60
Sayt: www.fdu.uz. Jurnal sayti: Journal.fdu.uz

Farg'ona, 2024.

A.A.Abduraxmonov	
Adabiy asardagi nurning xususiyatlari va funksiyalari (O'zbek lirikasi namunda)	461
A.B.Kosimova	
O'zbek adabiyotida hikoya va drabblar	470
	TILSHUNOSLIK
M.Y.Mamajonov	
Muloqotni boshqarishda lisoniy va nolisoniy vositalarning o'rni	474
R.M.Shukurov, G.S.Jo'raboyeva	
Farg'ona viloyati toponimlarining sotsiolingvistik xususiyatlari	478
Z.V.Alimova	
Navoiyning "Saddi iskandariy" dostonidagi "Haroson" so'zi va uning morfologik belgilari xususida	484
F.X.Qosimova	
O'zbek tilshunosligida tibbiy terminologiya bo'yicha tadqiqotlar: sifat va miqdor tahlili	489
A.A.Ergashev	
Etnotoponimlar tadqiqi	497
H.Sh.Radjabova	
Terminologik lug'atlar tadqiqiga doir	503
S.A.Jabborova	
Morphological and syntactic analysis of the structure of medical terminology in the English and Uzbek languages	508
Sh.R.Amonturdiyeva	
Diniy uslub shakllanishining antropotsentrik va kognitiv asoslari	512
D.I.Mirzayeva	
Tillardagi turg'un o'xshatishlarning umumlingvistik statusi	518
X.F.Xaydarova	
Taqlid so'zlarning statistik tahlili (O'zbek tilining ikki va besh jildli izohli lug'atlari misolida).....	521
M.A.Hojiyeva	
Filolog mutaxassislarda terminologik kompetentlikni rivojlantirishning ahamiyati	525
I.A.Egamberdiyeva	
Metafora - til, madaniyat va ma'naviyat ko'zgusi.....	528
D.I.Mirzayeva, X.R.Mirzayeva	
O'zbek va Ingliz tillaridagi frazeologik birliklarda o'lchov so'zlarning qo'llanilishi	532
Z.Sh.Ashurova	
Badiiy matnning lingvopoetik xususiyatlari va muallif individual uslubi talqini	536
I.T.Hojaliyev, G.S.A'zamova	
Adekvatlik va uni ta'minlovchi nolisoniy va lisoniy omillar	540
Z.M.Sobirova	
Til va ong munosabati L.S.Vigotskiy psixologik talqinida	546
V.A.Vositov	
So'z o'zlashtirish tillararo aloqani yuzaga keltiruvchi sotsiolingvistik omil sifatida	551
M.T.Abdupattoyev, X.P.Shodmonov	
Konvergensiya va uning sintaktik-stilistik funksiyasi	558
D.I.Khodjaeva	
Lingvodidaktika va metodika terminlari tavsifi, farqli jihatlari	563
O.M.Yusupova	
Ingliz va O'zbek maishiy ertaklaridagi asosiy tushunchalarni ifodalovchi leksemalarning semantik tahlili	568
M.V.Nasridinov	
"Maqsad" konsepti maydonida yotuvchi ingliz tilidagi morfemalarning qiyosiy tadqiqi.....	573
M.O.Batirkhanova	
Lexicographic analysis of somatisms in different languages.....	578
M.U.Mamadjanova	
Interpretation of epithetic compounds in linguistics.....	583
M.V.Nasridinov	
Ingliz va O'zbek tillarida "Maqsad" konseptining morfologik struktural, semantik tahlili	587
M.Y.Madiyeva	

National and cultural features of brand names	590
D.R.Ismoilova	
Ingliz va o'zbek tillaridagi "Qotillik" mikromaydoni	597
X.P.Shodmonov	
Idiostil va stilistik konvergensiya munosabatining lingvopoetik tadqiqi	602
X.Matnazarova	
Diskurs tenorida adresant rollarning lingvistik tahlili	607
J.Q.Ismonaliyev	
Zamonaviy o'zbek tilshunosligida fe'l va zamonlarning o'rganilishi	610
M.A.Abdulimova	
Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonidagi o'xshatishlarning mazmuniga ko'ra turlari	613



UDK: 81-2

LINGVODIDAKTIKA VA METODIKA TERMINLARI TAVSIFI, FARQLI JIHATLARI

DEFINING AND DIFFERENCIATING THE TERMS LINGUODIDACTICS AND
METHODOLOGY

ТОЛКОВАНИЯ И РАЗЛИЧИЯ ТЕРМИНОВ ЛИНГВОДИДАКТИКА И МЕТОДИКА

Khodjaeva Dilafro'z Izatilloevna 
Buxoro davlat universiteti, PhD, dotsent

Annotatsiya

Mazkur maqola lingvodidaktika termini, uning til o'qitish va o'rganishdagi ahamiyati, fanning maqsad va vazifalari hamda turli olimlarning fikrlari tahliliga bag'ishlangan. So'nggi yillarda zamonaviy tilshunoslikda lingvodidaktika terminining ko'p qo'llanilayotganini kuzatish mumkin. Bu termin, asosan, til o'qitish bilan aloqador manbalarda ko'proq qo'llanadi. Lingvodidaktika termini ko'p hollarda, til o'qitish metodikasi termini bilan sinonim sifatida ham qo'llanilmoqda. Garchi, bu ikkala termin orasida ularni farqlash uchun aniq chegaralar bo'lmasada, ular bitta termin emasligini qayd etish joiz. Maqolada mazkur terminlarning farqlari, ularning boshqa fan sohalari bilan munosabati va til o'qitishdagi ahamiyatli jihatlari ochib berilgan. Maqolada, shuningdek, lingvodidaktika terminiga turli manbalarda berilgan ilmiy izohlar ham keltirilib, ularning tahlili amalga oshirilgan.

Abstarct

This article is devoted to the analysis of the term linguodidactics, its importance in language teaching and learning, the goals and tasks of the science, and the opinions of various scientists. In recent years, the term linguodidactics has been widely used in modern linguistics. This term is mostly used in sources related to language teaching. In many cases, the term is used as a synonym for the term language teaching methodology. Although there are no clear boundaries between these two terms to distinguish them, it should be noted that they are not the same term. The article reveals the differences between these terms, their relationship with other fields of science, and their important aspects in language teaching. In the article, the scientific explanations of the term linguodidactics given in various sources are given and their analysis is carried out.

Аннотация

Данная статья посвящена анализу термина лингводидактика, его значения в преподавании и изучении языка, целей и задач науки, а также мнения различных ученых. В последние годы в современной лингвистике широко используется термин лингводидактика. Этот термин чаще всего используется в источниках, связанных с преподаванием языка. Во многих случаях термин лингводидактика используется как синоним термина методика преподавания языка. Хотя между этими двумя терминами нет четких границ, позволяющих их различать, следует отметить, что это не один и тот же термин. В статье раскрываются различия этих терминов, их связь с другими областями науки, а также их важные аспекты в обучении языку. В статье, также приведены научные объяснения термина лингводидактика, отобранные из различных источников, и проведен их анализ.

Kalit so'zlar: lingvodidaktika, metodika, xorijiy til o'qitish, metodologiya, yondashuv, termin, izoh, ilmiy ta'rif, lisoniy shaxs, didaktika.

Key words: linguodidactics, methodology, foreign language learning, approach, term, definition, scientific explanation, linguistic personality, didactics.

Ключевые слова: лингводидактика, методика, изучение иностранного языка, методология, подход, термин, толкование, научная дефиниция, лингвистическое лицо, дидактика.

KIRISH

So'nggi yillarda zamonaviy tilshunoslikda *lingvodidaktika* terminining ko'p qo'llanilayotganini kuzatish mumkin. Bu termin, asosan, til o'qitish bilan aloqador manbalarda ko'proq qo'llanadi. *Lingvodidaktika* termini ko'p hollarda, til o'qitish *metodikasi* termini bilan sinonim sifatida ham qo'llanilmoqda. Garchi, bu ikkala termin orasida ularni farqlash uchun aniq chegaralar bo'lmasada, ular bitta termin emasligini qayd etish joiz.

Lingvodidaktika fan sifatida XX-asrning ikkinchi yarmida paydo bo'ldi, aniqroq aytganda, 1969-yilda akademik N.M.Shanskiy tomonidan akademik maqsadlarda til muammolarini tasvirlash jarayonida muomalaga kiritilib, asosan, rus tilini xorijiy til sifatida o'rgatish doirasida qo'llanildi. N.M.Shanskiyning fikricha, *lingvodidaktika* til o'rganishning o'ziga xos jihatlari, mazmuni, tarkibi va pedagogika hamda lingvistikaning ilmiy tadqiqot doirasiga kiruvchi boshqa masalalarni ham qamrab oladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Lingvodidaktika, bugungi kunda, til o'qitish metodikasi kabi, xorijiy tilni o'quv fani sifatida o'rganib, tilni ham maqsad va ham ta'lim vositasi sifatida talqin qiladi va u pedagogika, didaktika, lingvistika va psixologiya fanlari kesishuvida rivojlanadi. Ba'zi olimlar lingvodidaktika va til o'qitish metodikasi orasidagi farqlarni aniqlashtirishga intiladi va bu farqni biz A.N.Shukinaning Lingvodidaktik ensiklopedik lug'atida ham kuzatishimiz mumkin: *Lingvodidaktika* – til o'qitish asoslarini ishlab chiquvchi til o'qitish nazariyasi bo'lsa, *metodikani* til o'rganish jarayoni desa bo'ladi [13, 345]. Shu o'rinda *metodika* terminiga M.V.Lyaxovitskiy tomonida berilgan quyidagi ta'rifni ham keltiramiz: Til o'qitish metodikasi bu – xorijiy til materiali asosidagi o'qitish va tarbiyalashning maqsad va mazmuni, qonun-qoidalari, vositalari va usullarini tadqiq etadi [4, 33]. Ko'rib turganimizdek, vosita va usullar til o'rganish jarayoniga yo'naltiriladigan bo'lsa, unda maqsad, mazmun va qonun-qoidalar metodik tadqiqotning nazariy asosini tashkil etadi. Lingvodidaktika, o'z navbatida, nafaqat til o'qitish masalalarini, balki insonning tildan foydalanishini [5, 7] ham o'rganadi va bu til o'qitishning amaliy jihatiga, ya'ni jarayonga ham e'tiborni qaratadi.

Lingvodidaktikaning fan sifatida rivojlanishi, uning obyekti, predmeti, tadqiqot vazifalari chet tilini o'qitishda metodik bilimlarning analitik va empirik komponentlarini sintez qilish bilan asoslanadi. Bu fan ko'plab bilimlarni o'zida mujassamlashtirgani holda til, ong, madaniyat va jamiyat kabi hodisalarning bir-biriga o'zaro ta'sirini ham, chet tilini o'qitish jarayonlarini ham, tilni ta'lim olish jarayonining bir qismi sifatida o'zlashtirishni ham, tildan muloqot vositasi sifatida foydalanishi ham o'rganadi. Lingvodidaktik tadqiqotlar doirasini tasvirlaganda, "professional til foydalanuvchisi" yoki "lisoniy shaxs" tushunchasiga murojaat qilish orqali lingvodidaktikaning tadqiqot yo'nalishlarini tavsiflashga, talabalarga til ta'limining zamonaviy ijtimoiy-madaniy modelining mazmungan o'ziga xos va innovatsion xususiyatlarini hamda uning muhim tarkibiy elementlarini, shu jumladan, ushbu ta'limning ahamiyati, uning maqsadi, mazmuni va usullarini, shuningdek, o'quvchilarning muloqot faoliyati, ularning ijtimoiy munosabatlar tizimiga jalb etilishi va ta'lim natijalariga alohida urg'u beriladi.

Shubhasiz, lingvodidaktika yoki chet tilini o'qitish nazariyasining rivojlanishi chet tili o'rganish sifatini belgilaydi. Hozirgi kunda lingvodidaktika fani chet tili o'qitish sohasidagi tadqiqot doirasini kengaytirmoqda, yangi ilmiy yo'nalish va yondashuvlarni, xususan, ta'lim tizimida tilni soha bilan integratsiyalashgan holda o'rgatish orqali yangi ilmiy tadqiqot yo'nalishlariga yo'l ochmoqda.

Lingvodidaktikaning asosiy maqsadi chet tili o'qitish bo'yicha ishonchli bilimlarni ishlab chiqarish va tizimlashtirishdir. Uning asosiy muammolarini ikkita guruhga bo'lish mumkin. Birinchisi, ilmiy metodologik bilimlarning tarkibi va tarixi, tamoyillari, shakllari va usullari bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchisi mazkur bilimlardan ta'lim jarayonida foydalanish imkoniyatini beradi. Shunday qilib, lingvodidaktikaning har bir rivojlanish bosqichida olingan ilmiy uslubiy bilimlar bilish jarayonining obyekti va mahsuli hisoblanadi. Ikkinchi guruh esa lingvodidaktika doirasidagi ilmiy bilimlarni ishlab chiqarish, umumlashtirish va tizimlashtirish, shu jumladan, uni ma'lum tushunchalar, yondashuvlar, modellar, texnika va o'quv jarayoniga integratsiyalashuviga yo'naltirilgan aniq ilmiy faoliyat sifatida talqin etiladi. Binobarin, bu lingvodidaktikani xorijiy til o'qitish nazariyasi sifatida ilmiy-uslubiy tadqiqotlar mahsuli ekanligi, va uning asosiy tadqiqot obyekti chet tillarini o'rganish va o'qitish haqidagi ilmiy tushunchalar to'plami ekanligi to'g'risidagi fikrni ilgari suradi. Ushbu masalalarni integratsiyalashgan o'quv dasturi misolida batafsil o'rganish, fanning evolyutsion va innovatsion rivojlanishi hamda unga bog'liq bo'lgan kognitiv jarayonni tadqiq etish bugungi kun tartibidagi muhim masalalardan biridir.

V.Raynike tomonidan ishlab chiqilgan konsepsiyaga asosan esa, chet tili o'qitish nazariyasini hosil qiluvchi uchta mustaqil va o'zaro bog'langan ilmiy sohalar mavjud: 1) til o'qitish nazariyasi yoki lingvodidaktika; 2) chet tili didaktikasi va 3) ma'lum tilni o'rgatish yoki xususiy

TILSHUNOSLIK

metodika [9, 257-263.]. Qayd etilgan sohalarining umumiyligi shundaki, ularning barchasining markazida insonning muloqot maqsadida tildan foydalanish qobiliyati turadi. Shaxsning og'zaki muloqotga kirisha olish qobiliyatini yuqorida ko'rsatilgan fanlarning markaziy nuqtasiga ko'tarish juda jadal rivojlanishda bo'ladi, chunki faqat shu holda aytish mumkinki, chet tili o'qitishning ko'p qirrali muammolari bilan shug'ullanuvchi olimlarning qiziqishi markazida lisoniy shaxs yotadi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Chet tillarni o'qitish nazariyasini tashkil etuvchi ilmiy sohalarining o'ziga xosligi haqida gapirganda, shuni ta'kidlash joizki, ularning har biri tadqiqotning asosiy maqsadi, ya'ni insonning og'zaki muloqotga kirisha olish qobiliyatiga turlicha munosabatda bo'ladi. Autish mumkinki, bunda lingvodidaktika tilni o'zlashtirish jarayonlarini tahlil qilish, boshqarish va modellash bilan bog'liq muammolarni o'rganadi, ya'ni ona tili va xorijiy tilni o'zlashtirish mexanizmlari va ichki strukturaviy shakllanish jarayonlarini tavsiflash va tushuntirish haqida gapirish mumkin. Didaktik masalalar bilan shug'ullanadigan mutaxassis uchun og'zaki muloqotga kirisha olish qobiliyati o'qitishning strategik maqsadi bo'lib xizmat qiladi, xususi metodikaning predmeti esa o'rganilayotgan tilda ma'lum shart-sharoitlar asosida muloqot qilish qobiliyatini o'rganish va rivojlantirish jarayoni inobatga olinadi. Metodist o'rganilayotgan tilda muloqot qila olish qobiliyatini shakllantirish masalalari bilan shug'ullanishi sababli, u til o'rganish jarayonining o'ziga xos xususiyatlarini bilishi zarur hisoblanadi. Ammo metodika fanining o'zi bu bilimlarni shakllantirmaydi, balki uni boshqa bilim sohalaridan, jumladan, didaktika sohasidan o'zlashtiradi. Didaktika esa, har qanday tilni o'rgatishning umumiy qonun-qoidalarini o'rganadi [6, 12-18.].

Lingvodidaktik tadqiqotlarni olib borishning muhimligini e'tirof etgan holda, uni faqat tilshunoslik bilan bog'lash noto'g'ri ekanligini ta'kidlamoqchimiz. Tilshunoslik chet tilini o'qitish metodikasining o'ziga xos xususiyatlarini tashkil etuvchi muhim omil bo'lishiga qaramay, fanni o'qitish jarayonining ko'p funksiyaliligi va ko'p qirraliligini hisobga olish kerak bo'ladi. Ushbu muammolarni tahlil qilishda fanlararo lingvodidaktik yondashuv til falsafasi, tilshunoslik, psixologiya, madaniyatlararo muloqot nazariyasi, xorijiy tilni o'zlashtirish nazariyasi, psixolingvistika va boshqa fanlar ma'lumotlariga asoslanadi. Lingvodidaktika fan sifatida lisoniy shaxsning lingvokognitiv tuzilishini tavsiflash, til o'qitish va o'rganish jarayonida uning rivojlanish shartlari va qonuniyatlarini kutilgan maqsad natijasi sifatida asoslash, shuningdek, o'zlashtirish/o'rgatish jarayonining o'ziga xosligi sifatida obyektini (til o'rganuvchisining dunyo lisonini manzarasi va tili), shu bilan birga, ushbu jarayonning barcha subyektlari o'zaro munosabatini, yuzaga kelayotgan xatolarning (lingvistik, mamlakatga xos va madaniy) tabiati va ularni bartaraf etish mexanizmlarini o'rganadi. Bunda ko'p tillilik kontekstida til o'qitish va o'zlashtirish xususiyatlari, o'quvchilarning individual va madaniy xususiyatlari, ularning yoshga xos xususiyatlari hamda til bilish darajalarini belgilovchi omillarni o'rganish katta istiqbolga ega [8, 138-143.].

Binobarin, lingvodidaktik tadqiqotlarning dolzarbligi o'qitish metodlari samaradorligi va rivojlanishini baholashning obyektiv ilmiy asoslarini va maqsadi lisoniy shaxsni shakllantirish g'oyasi yotgan metodni yaratish bilan belgilanadi.

Ingliz terminologiyasida *lingvodidaktika* termini bilan to'liq mos keladigan tushuncha yo'q, uning talqini va tarjimai qo'shimcha izohlarni talab qiladi. Bu termin ingliz tilidagi *applied linguistics*, *language teaching methodology (theory)*, *language pedagogy*, *theory of language acquisition* kabi terminlarga qisman mos keladi. Quyida biz lingvodidaktika terminining turli manbalardagi izohini tahlilga tortamiz:

1. Linguodidactics: A branch of science studying the patterns of students' evolution with a new language and culture in conjunction with their native language and culture [14] - ya'ni talabalarning xorijiy til va madaniyatini ona tili va madaniyati bilan birgalikda o'rganib, rivojlanishini o'rganadigan fan sohasi (tarjima o'zimizniki).

2. lingvodidaktika [lot. lingua+yunon. didaktika] lingvota'limshunoslik (-til ta'limi nazariyasi); ~, lingvometodika q., lingvopsixologiya q., lingvofiziologiya q. lingvotexnologiya q. [1].

3. Лингводидактика (от *лат. lingua* – язык + *греч. didaktikos* –поучительный). Общая теория обучения языку. Термин был введен в научный обиход акад. Н. М. Шанским в связи с разработкой проблем описания языка в учебных целях [12] - ya'ni til o'rganishning umumiy nazariyasi. Bu termin ilmiy muomalaga akademik N. M. Shanskiy tomonidan ta'lim jarayonida tilni tavsiflash muammolarini ishlab chiqish maqsadida kiritilgan (tarjima o'zimizniki).

4. Linguodidactics is a theory of language teaching, integration linguistics and didactics. Linguodidactics is a theoretical part of the methodology of teaching languages, which arose as a result of the integration of linguistics and methodology - ya'ni Lingvodidaktika – til o'qitish nazariyasi bo'lib, lingvistika va didaktikaning integratsiyasidir. Lingvodidaktika til o'qitish metodologiyasining nazariy qismi bo'lib, tilshunoslik va metodologiyaning integratsiyalashuvi natijasida vujudga kelgan [10].

5. Linguodidactics is a practical linguistic science that takes into account both the teaching of a foreign language and the acquisition of a foreign language. Linguodidactics studies the general laws of language teaching, develops methods and tools for teaching a particular language depending on the didactic objectives, the influence of monolingualism (monolingualism) or bilingualism (bilingualism) on language learning and solves a number of related problems [3] - ya'ni lingvodidaktika amaliy tilshunoslik fani bo'lib, chet tili o'qitish va o'zlashtirish masalalarini qamrab oladi. Lingvodidaktika til o'qitishning umumiy qonuniyatlarini o'rganadi va didaktik maqsadlar, bir tillilik (monolingviallik) yoki ikki tillilik (bilingviallik)ning til o'rganishga ta'siridan kelib chiqqan holda muayyan tilni o'rgatishning usul va vositalarini ishlab chiqadi va shu bilan bog'liq qator muammolarni hal qiladi (tarjima o'zimizniki).

6. "The term **"linguodidactics"** is currently used to denote a discipline that studies the content, means and methods of teaching a native / non-native language" [11, 6]. This term was introduced by the Soviet linguist Nikolai Maksimovich Shansky in 1969. It was recognized as international in 1975. Linguodidactics is currently considered as one of the levels (along with methodology and technology) of language teaching methodology. It is a theoretical language teaching discipline that arose at the intersection of linguistics and didactics [2, 54-58]. - ya'ni *lingvodidaktika* termini ona tili/xorijiy tilni o'qitishning mazmuni, vositalari va usullarini o'rganadigan fan hisoblanadi. Bu termin 1969-yilda Sovet tilshunosi Nikolay Maksimovich Shanskiy tomonidan muomalaga kiritilgan va 1975-yilda xalqaro termin sifatida e'tirof etilgan. Hozirgi kunda *lingvodidaktika* til o'qitish metodikasi darajalaridan biri sifatida qaralmoqda. Bu tilshunoslik va didaktika fanlarining kesishuvida paydo bo'lgan til o'qitish nazariyasidir (tarjima o'zimizniki).

XULOSA

Lingvodidaktik tavsif tillarning o'xshash va farqli tomonlarini o'rganish, o'rganilayotgan tilning mazmun va tuzilishini tahlil qilish va tilshunoslik hamda pedagogika kesishuvida yuzaga keladigan boshqa bir qator muammolarni o'z ichiga oladi. Biroq, bu terminning mazmun va zarurati haqida mutaxassislar o'rtasida yagona fikr yo'q. Ba'zi olimlar *lingvodidaktika*ni til o'rgatishning nazariy va amaliy masalalari majmuini bildiruvchi va aslida *metodika* termini o'rnida qo'llaniladigan termin sifatida qabul qiladilar (N. M. Shanskiy, R. K. Minyar-Beloruichev). Boshqalar esa *metodika* va *lingvodidaktika* terminlarini sinonim sifatida qabul qiladilar. Yana boshqa guruh olimlar esa bu ikki terminni bir-biridan farqlashga va ularning har biri alohida mustaqil termin ekanligini asoslashga intiladilar (N. D. Galskova, L. V. Moskovkin) va mazkur yondashuv ko'pchilik mutaxassislar tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda. *Lingvodidaktika* til o'qitishning umumiy nazariyasi bo'lib, uning metodologik asosini ishlab chiqadi. *Metodika* esa muayyan tilni o'ziga xos sharoitlarda (xususiyl metodika) o'qitish jarayonini tavsiflaydi yoki tilni har qanday sharoitda o'qitishning qonuniyatlarini (umumiy metodika) ochib beradi. Ikki termin orasidagi bu farqlarni qabul qilgan holda, biz til o'qitishning nazariy asoslarini (mazmuni, maqsad va vazifalari, tamoyillari, usullari, vositalari, o'quv jarayoni, tadqiqotlar haqidagi g'oyalar hamda lingvodidaktikaning unga asos bo'lgan fanlar bilan o'zaro munosabati) va til o'qitishning metodik asoslarini (til aspektlari va muayyan o'qitish sharoitida nutq faoliyati turlarini o'rgatish, o'quv jarayonini tashkil etish, pedagog kasbiga bo'lgan talablar) qamrab olgan til o'qitishning lingvodidaktik asoslari haqida fikr yuritishimiz mumkin.

Yuqoridagi tahlillardan lingvodidaktika terminining til o'qitish va o'zlashtirish nazariyasi hamda metodikaning mazkur nazariyaga asoslangan holda til o'qitish jarayonini tashkil etuvchi fan ekanligini qayd etish mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. J. Jalolov (2012). Chet tili o'qitish metodikasi. *T.: O'qituvchi*, 434.
2. Kholdorova G.Sh. (2021). Communicative competence as a problem of modern linguodidactics// Current Research Journal Of Philological Sciences 2(10): 54- 58.

TILSHUNOSLIK

3. Kurbanova Munisa Akbaraliyevna. (2020). Fundamentals Of Linguodidactics In Teaching Foreign Languages (On The Example Of English Pedagogical Terms) // The American Journal of Social Science and Education Innovations (ISSN – 2689-100x) Published:| P. 117-126].
4. Ляховицкий М.В. (1973). О некоторых базисных категориях методики обучения иностранным языкам // Иностранные языки в школе. №1., С.33.
5. Маслова В.А. (2001). Лингвокультурология. М.: Академия, 2001. 208.
6. Митрофанова О.Д. (1999). Лингводидактические уроки и прогнозы конца XX века / О.Д. Митрофанова // Иностр. яз. в шк. 12-18.
7. Михалева О.В. (2022). Лингводидактика и методика обучения иностранным языкам: учеб.-метод. пос. / О.В. Михалева. Владимир: ВлГУ, 136.
8. Обучение иностранным языкам: Теория и практика: Учебное пособие для преподавателей и студентов. (2006). 2-ое изд., испр. и доп. М.: Филоматис, 138-143.
9. Reinecke, W. (1983). Zur Theorie des Fremdspracherwerbs - ein methodologischer Ansatz / W. Reinecke; пер. с нем. М.: Академия, 257-263.
10. Safarova D.A., Khasanova K.B. (2023). BASICS OF LINGUODIDACTICS AND IT'S CONNECTION WITH OTHER SCIENCES K. B. // ЗАМОНАВИЙ ТИЛШУНОСЛИК ВА ТАРЖИМАШУНОСИЛИКНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ
11. Vorozhtsova I.V. (2017). Basics of linguodidactics textbook for universities Izhevsk, 360.
12. Шанский Н.М. (1985). Русское языкознание и лингводидактика: сборник статей. М.: Русский язык, 239.
13. Щукин А. Н. (2007). Лингводидактический энциклопедический словарь: более. 2000 единиц // М.: Астрель: АСТ: Хранитель, 746.
14. https://link.springer.com/chapter/10.1007/978-3-030-11473-2_11